

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING OILA BILAN HAMKORLIGI

Mirolimova Noilaxon Kushoqboyevna

Farg'ona viloyati Rishton tumani 24-Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22761538>

Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

Annotatsiya:

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan hamkorligi, uning mazmuni, maqsadi va bola tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashi va maktab ta'limiga tayyorlanishida oila hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Maqolada MTT va oila o'rtasidagi hamkorlikning asosiy shakllari, ota-onalar bilan ishlash usullari, pedagogik maslahatlar, ota-onalar yig'ilishlari, ochiq mashg'ulotlar, tadbirlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, oila va MTTning yagona tarbiyaviy maqsad asosida faoliyat olib borishi bolaning shaxsiy, aqliy, jismoniy, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar:

MTT, maktabgacha ta'lim, oila, ota-ona, tarbiyachi, bola tarbiyasi, hamkorlik, pedagogik hamkorlik, oilaviy tarbiya, ta'lim-tarbiya, maktabga tayyorgarlik, pedagogik madaniyat, bola rivojlanishi.

Kirish

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrleydigan, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning dastlabki va eng muhim bosqichi maktabgacha yosh davriga to'g'ri keladi. Bola aynan shu davrda atrof-muhitni anglay boshlaydi, nutqi rivojlanadi, kattalar va tengdoshlari bilan munosabat o'rnatadi, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtiradi hamda mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantiradi. Bolaning dastlabki tarbiya muhiti oila hisoblanadi. Oila bolaning dunyo haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantiradi. Ota-ona, buva-buvi va boshqa oila a'zolarining munosabati, xatti-harakati, nutqi va kundalik hayoti bola uchun o'ziga xos namuna bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli oiladagi tarbiyaviy muhit bolaning keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti esa oilada boshlangan tarbiya va rivojlantirish jarayonini pedagogik jihatdan davom ettiradi. MTTda bola maxsus tashkil etilgan ta'limiy va tarbiyaviy muhitga kiradi. Bu muhitda u tengdoshlari bilan muloqot qilish, jamoada faoliyat yuritish, topshiriqlarni bajarish, o'z fikrini ifodalash va o'z xatti-harakatlarini boshqarishni o'rganadi. Shu nuqtayi nazardan, MTT va oila o'rtasidagi hamkorlikning to'g'ri tashkil etilishi juda muhim. Agar oila va MTT bir xil tarbiyaviy maqsad asosida harakat qilsa, bolaga qo'yiladigan talablar bir-birini to'ldirsa, bolaning rivojlanishida ijobiy natijalarga erishish mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan taqdimot va yig'ilishlarda oilalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, qamrovni 80 foizga yetkazish, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari ta'minoti xarajatlarini davlat budjetidan qoplab berish mehnatlari belgilandi. Respublika bo'yicha maktabgacha ta'lim qamrovi 78 foizga yetkazildi, har bir tumanda bu ko'rsatkichni 80 foizdan kam bo'lmagan

darajaga chiqarish vazifasi qo'yildi. Kambag'al va ayrim toifadagi oilalar farzandlarini nodavlat (jumladan, oilaviy) bog'chalarga qabul qilishda ota-onalar to'lovining bir qismi Davlat budjetidan qoplab berilishi yo'lga qo'yildi. Ota-onalar va oila muhiti bilan yaqin hamkorlikni o'rnatish, bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida oila-bog'cha uyg'unligini ta'minlash bo'yicha yangi uslublar belgilandi. MTT da ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni. Maktabgacha ta'lim muassasasida ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhij majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshiklar kunlari, suhbat va maslahatlar, tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-uslubchining rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'ligini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi. Tarbiyachining oilaga borib ko'rishi, bola yashab turgan oilani o'rganish ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas, maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsad bola yashayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa ota-onalarga yordam ko'rsatishdir. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlari ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo'lgan hurmati va ishonchi ortadi. Tarbiyachi bolaning uyida ko'rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda ularni tahlil qiladi, ota-onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o'zining maslahatlarini beradi. Oilaga kamida yiliga 2 marta borib ko'riladi.

Tarbiyachining oilaga borishi ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshiradi. Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar. Oila bilan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llaniladigan suhbat bolalarni ertalabki qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Bu kabi suhbatlar tarbiyachi bilan ota-onalarni yaqinroq tanishishlariga yordam beradi. Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo'lib, yaqinlariga yaxshi kayfiyat tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega. Ota-onalardan bola kechqurun qanday kayfiyatda bo'lgani, qanday uxlaganini, bola o'zini qanday sezishni so'rash foydali. Tarbiyachi ota-onalarga bolalarni bugun guruhda nimalar kutishi haqida qisqacha axborot beradi. Bu narsa bolani kayfiyatini ko'taradi, ota-onani xotirjam qiladi. Ota-onalar bilan kechki suhbatlar ham vaqt jihatidan cheklangan, tarbiyachi bolaning tashqi ko'rinishiga taalluqli kamchiliklar aytilishi mumkin. Bola guruhda kunni qanday o'tkazganini, nimalar bilan mashg'ul bo'lgani, o'zini qanday tutgani, nimaga e'tibor berish kerakligi haqida maslahatlar beradi. Ota-onalarni bola tarbiyasida yo'l qo'ygan biror kamchilik va xatosini tahlil qilish uchun ular bilan yanada mufassal suhbat o'tkazish zarurati tug'ilganda, vaziyatni tuzatish uchun malakali maslahat hamda tavsiya berish kerak bo'lganda maslahatlar o'tkaziladi. Ota-onalar majlisiga bog'chadagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qumitasining faoliyati, oila tajribasidagi ilg'or tajribalar bilan tanishtiriladi. Bu majlisda mudira yoki uslubchi, tarbiyachi ma'ruza qiladi, ota-onalar so'zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Yig'ilishlar ta'lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o'z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda bog'chaga qiziqish uyg'otadi. Guruhdagi ota-onalar majlisida maskur guruhdagi bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo'lgan masalalar muhokama qilinadi. Masalan, umumiy majlis mavzusi "Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli" bo'lsa, o'rta guruhlarda o'tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, "Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda MTT va oilaning birgalikdagi ishlari", "Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash" va hokazo bo'lishi mumkin. Ota-onalar uchun tayyorlangan ma'ruzani tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar

ko'rish bilan qo'shib olib borish mumkin. Bolalar hayoti, faoliyati to'g'risidagi misollardan foydalanganda ijobiy materiallardan ko'proq bo'lishi kerak; salbiy faktlarni gapirishda ehtiyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qilinuvchilarni nomlarini ko'rsatmasligimiz lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi lozim. Majlisdagi yil davomida o'tkaziladigan "Bayram ertaliklari" haqida ham rejalar tuzib olinadi. Bayramda bolalarning ishtiroki, kiyimlari, o'rganiladigan she'r va raqslari uchun tarbiyachiga ota-onalarning ko'magi zarur bo'ladi. Yilning oxirida o'tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ishlari hisoboti taqdim etiladi.

Mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida ota-onalar va tarbiyachilar obro'yining bolaga ta'sir kuchi haqida ham fikr bildirganlar. Bu esa hozirgi talablarga ham javob beradi. U ota-onalarning bolalarga tarbiyaviy ta'sirining bor kuchi obro'yiga asoslanadi deydi. Biroq bu obro' tabiatdan berilmaydi, sun'iy ravishda yaratilmaydi, qurquv, qo'rqitish, zo'rlik bilan erishilmaydi, balki ota-onaga nisbatan mehr oqibatdan kelib chiqadi deb ta'kidlaydi. Bola shaxsining shakllanishida oila va MTTning o'rni bir-birini to'ldiradi. Oilada boshlangan tarbiya MTTda pedagogik jihatdan davom ettiriladi. Oila va MTT hamkorligi bolaning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki uning mustaqilligi, muloqotchanligi, mas'uliyati, ijodkorligi va ma'naviy-axloqiy sifatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ota-onalar va pedagoglarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bolaning kelajakdagi ta'limi va shaxsiy rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning „Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti“ 04.02.2026
2. "Ik qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi 2-nashr.
3. Maktabgacha pedagogika Sh.Sodiqova. Toshkent - 2013, „Tafakkur Bo'stoni“.
4. Maktabgacha pedagogika F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M. Qayumova, N.A.A'zamova. "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti Toshkent – 2018

PRESCHOOL EDUCATIONAL OF ORGANIZATION FAMILY PARTNERSHIP

Abstract:

The article discusses the importance of cooperation between preschool educational organizations and the state, its content, and its purpose in the upbringing of children. The article focuses on the comprehensive development of preschool children, their education, independent thinking, acquisition of social skills, and their preparation for school education. The article analyzes the main forms of cooperation between preschool educational state methods of working organizations and the with parents, pedagogical consultations, parent meetings, open classes, and the use of modern information technologies. It also substantiates the fact that the activities of preschool educational organizations and the they state, based on which work, have a single educational goal, have a spiritual, positive effect on the personal, moral, and social mental, physical, development of the child.

Keywords:

MTT, preschool education, family, step-mother, educator, child upbringing, cooperation, pedagogical cooperation, cultural development, education, school preparation, pedagogical culture, child development.